

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MIRSAATOVA SHAXNOZA XIKMATULLAYEVNA

**SKVAJINALARNI BURG‘ILASH JARAYONIDA YUZ BERADIGAN
GEOLOGIK ASORATLARNI OLDINI OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 622.244.43:622.24:-032.26

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mirsaatova Shaxnoza Xikmatullayevna

Skvajinalarni burg‘ilash jarayonida yuz beradigan geologik asoratlarni oldini olish texnologiyasini ishlab chiqish..... **3**

Мирсаатова Шахноза Хикматуллаевна

Разработка технологии по предупреждению геологических осложнений в процессе бурения скважин..... **21**

Mirsaatova Shakhnoza Khikmatullayevna

Development of technology to prevent geological complications in the process of drilling wells **39**

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... **43**

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MIRSAATOVA SHAXNOZA XIKMATULLAYEVNA

**SKVAJINALARNI BURG‘ILASH JARAYONIDA YUZ BERADIGAN
GEOLOGIK ASORATLARNI OLDINI OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2812. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.liting.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Raximov Anvarxodja Akbarxodjiyevich**
texnika fanlari doktori, dosent

Rasmiy opponentlar: **Aliyev Baxodir Abduganiyevich**
texnika fanlari doktori, professor

Mamadjanov Elzod Ulmasovich
texnika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot: **"IGIRNIGM" DM**

Dissertatsiya himoyasi "O'ZLITINEFTGAZ" AJ huzuridagi DSc.23/25.08.2021.T.136.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «17» aprel soat «10-00» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)280-67-00; faks: (+99871) 256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya bilan "O'ZLITINEFTGAZ" AJ Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 12-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)280-67-00; faks: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «__» _____ dagi №__ - raqamli reyestr bayonnomasi).

U.S.Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.U.Shafiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari doktori

A.A.Zakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar
raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda neft va gaz skvajinalarini geologik asoratlarsiz burg‘ilash hisobiga neft va gaz qazib chiqarish hajmini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Geologik asoratlarni bartaraf etish bilan skvajinalarni qurish narxi loyihalashtirishga nisbatan keskin ortadi, burg‘ilashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari esa kutilgan natijani bermaydi. Shunga asoslanib, neft va gaz skvajinalarini yuqori samarali yangi texnologiyalarni qo‘llagan holda avariya va asoratlarsiz loyihalash chuqurliklarigacha burg‘ilash zarurati eng dolzarb muammolardan biridir. Shu munosabat bilan, geologik asoratlarning oldini olishda import qilinadigan qimmat reagentlar o‘rniga mahalliy chiqindi mahsulotlari asosida ko‘p funksiyali kimyoviy reagentlarni ishlab chiqish zarurati hamda maxsus konteyner bilan tamponaj qorishmasini burg‘ilash eritmalarining qatlama yutilish zonalariga etkazib berishning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda dunyoda neft-gaz qazib chiqaradigan etakchi kompaniyalar hamda texnologiyalar yaratuvchilari tomonidan neft va gaz skvajinalarini burg‘ilashda yuzaga keladigan geologik asoratlarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Skvajinalarni muvaffaqiyatli, sifatli va avariylarsiz burg‘ilashni ta‘minlash uchun tadqiqotchilar geologik asoratlarning oldini olish hamda burg‘ilash ishlarining samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan burg‘ilash eritmasining texnologik xususiyatlarini boshqarish imkonini beradigan turli xil reagentlarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratmoqdalar.

Respublikamizda neft va gazga bo‘lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib borayotganligi sababli uglevodorod xomashyosini qazib chiqarishni oshirish uchun yangi maydonlarni izlash, yangi konlar ochish va yangi skvajinalarni burg‘ilash talab etiladi. Buning uchun geologik asoratlarning oldini olish va skvajinalarni muammolarsiz burg‘ilash bo‘yicha zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va dasturiy majmualarni rivojlantirish va joriy etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “iqtisodiyotning energiya zichligi va resurs zichligini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, skvajinalarni burg‘ilashda tog‘-geologik sharoitlarda geologik asoratlarni oldini olish maqsadida ko‘p funksiyali xususiyatlarga ega burg‘ilash eritmalarini ishlab chiqish, shuningdek yangi texnologiyalarni yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktabrdagi №PF-6319 son “Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi №PF-116 son “Ma‘muriy islohotlar doirasida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida, 9-iyul 2019-yildagi №PQ-4388 “Aholi va iqtisodiyotni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-iyuldagi №PQ-4401 "Yer qa'rini geologik o'rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021-yillarga mo'ljallangan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ko'paytirish davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan masalalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublikadagi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Geologik asoratlarning oldini olish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish bilan asoslab, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, neft va gaz skvajinalarini burg'ilashda yuzaga keladigan asosiy muammolar turli xil omillarga, shuningdek, skvajinaning geologik tuzilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Turli kimyoviy reagentlar yordamida geologik asoratlarning oldini olish bo'yicha tadqiqotlar va rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan chet el olimlari, tadqiqotchilari: E.G.Agabalyans, Yu.M.Basarigin, A.I.Bulatov, A.P.Predein, K.M.Tagirov, N.Abass, M.Frydman, F.Golfier, M.K.Panga, R.P.Steiger, M.Lai, P.J.Lillford, S.W.Wong va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar.

Skvajinalarni burg'ilash jarayonida sodir bo'ladigan geologik asorat bilan bog'liq muammolar, shuningdek, turli xil kimyoviy reagentlarni qo'llash orqali o'pirilishlarni, neft va gaz namoyon bo'lishining oldini olishga yo'naltirilgan tadqiqotlar A.K.Raximov, U.D.Mamadjanov, A.M.Aminov, A.A.Raximov, Sh.X.Umedov, O.S.Omonov, R.D.Pulatov, M.Yu.Matyakubov, E.A.Likov, D.R.Maxamatxodjaev va boshqa mahalliy olimlarning ismlari bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtgacha burg'ilash jarayonida geologik asoratlarni oldini olish bo'yicha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab usullarga qaramay, asoratlar va avariylarning oldini olish texnologiyalari hozirgacha yetarlicha o'rganilmagan, ko'plab geologik asoratlar o'z yechimini topmagan va asoratlar ikkinchi stvolni burg'ilash yoki skvajinani tugatish yo'li bilan bartaraf qilinmoqda, bu esa yuqori moliyaviy xarajatlar bilan bog'liq.

O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismidagi neft va gaz mintaqalarida asoratlar tez-tez uchraydi, ular tog' jinslarining mustahkam emasligi, burg'ilash eritmasining qatlamga yutilishi, salnik hosil bo'lishi, skvajinaning torayishi, o'pirilishlar hamda burg'ilash asboblarini siqilib qolishi shaklida va boshqalar namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilganlarga asoslanib, mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan olingan reagentlar asosida geologik asoratlarning oldini oluvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti va "Burg'ichi biznes" O'IICh

korxonasining ilmiy-tadqiqot, fundamental va ilmiy-texnik loyihalari rejalariga muvofiq BB-Atex-2018-457 “Nasos kompressor quvurlarini tushirib ko‘tarish jarayonini qisqartirish va yutilishni bartaraf etish maqsadida konteynerni kabel yordamida tushirib ko‘tarish usulini ishlab chiqish”; № IOT-2017-8-2 “Burg‘ilashda skvajina stvolini torayishi va jinslarni o‘pirilishini oldini olish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish”, shuningdek, № OP2 03.04.2023 “Anomal past qatlam bosimli skvajinalarni burg‘ilash jarayonida qo‘llash uchun zichligi 0,75 g/sm³ va qovushqoqligi T-250-300 sekund bo‘lgan burg‘ilash eritmalarini tayyorlash uchun kimyoviy reagentlar ishlab chiqish”, № 03/15 “Yuqori mineralizatsiyalangan qatlam suvlarida yuvuvchi suyuqliklarning samarali tarkibini ishlab chiqish va Ustyurt neft va gaz mintaqasi maydonlarida mahsuldor gorizontlarni ochish va o‘zlashtirish bo‘yicha texnologik reglamentlarni berish” kabi xo‘jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi skvajina devorlarining to‘kilishi, o‘pirilishi, torayishi hamda burg‘ilash uskunasi qilib qolishining oldini olish uchun past filtrlash xususiyatlariga ega ko‘p funksiyali kimyoviy reagentni o‘z ichiga olgan burg‘ilash eritmasining yangi tarkibini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

geologik asoratlarni keltirib chiqaradigan omillarning ta‘sirini aniqlash;

beqaror tog‘ jinslarining shishishini kamaytirish maqsadida burg‘ilash eritmalarining suv ajratishini pasaytiradigan kimyoviy reagentning yangi tarkibini mahalliy sanoat chiqindilari asosida ishlab chiqish;

Ustyurt mintaqasining tog‘-geologik sharoitlarida geologik asoratlarni oldini olish maqsadida ko‘p funksiyali xususiyatlarga ega burg‘ilash eritmalarining retseptlarini ishlab chiqish;

yangi ishlab chiqilgan kimyoviy reagent yordamida haroratning zichlikka, shartli qovushqoqlikka, suv ajratishga bo‘lgan ta‘sirini aniqlash;

skvajinalar kesimdagi yutish oraliqlarini burg‘ilash vaqtida yuzaga keladigan geologik asoratlarning oldini olish texnologiyasini yaratish;

aniqlangan tadqiqot natijalarini, geologik asoratlarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va batafsil bayon qiling va ularni hal qilishda kompleks yondashuvni ishlab chiqish.

geologik asoratlarning keltirilgan sabablarini tadqiq qilishdan olingan natijalarni aniqlashtirish va mufassallashtirish hamda ularni hal qilishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ustyurt neft-gaz mintaqasi maydonlarida murakkab tog‘-geologik sharoitida neft va gaz skvajinalarini burg‘ilash vaqtida sodir bo‘ladigan geologik asoratlarni oldini oladigan ko‘p funksiyali kimyoviy reagent asosida burg‘ilash eritmalarining tarkibi va sement mostini o‘rnatish maqsadida skvaginaga kabelda tushiriladigan konteyner olingan.

Tadqiqotning predmeti geologik asoratlarni oldini olishda sanoat chiqindilari asosidagi ko‘p funksiyali kimyoviy reagentni burg‘ilash eritmasining texnologik xossalariga ta‘sirini hamda geologik asoratlarni bartaraf etishda skvajinaga kabelda tushiriladigan konteyner bilan most o‘rnatish texnologiyasini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida sanoat chiqindilari va ular asosida

olingan kimyoviy reagentning rentgen fazasi va spektral tahlillari hamda ko'p funksiyali kimyoviy reagent qo'llanilgan burg'ilash eritmasining texnologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqot ishlari bilan bog'liq amaliy ma'lumotlarni taqqoslash, matematik tahlillari skvajina devorlarining to'kilish va o'pirilishlari, burg'ilash kolonnasining siqilib qolishi kabi geologik asoratlarni oldini olish uchun qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

skvajinalarni burg'ilash jarayonida skvajina devorlarining to'kilishi, o'pirilishi va burg'ilash asboblarning siqilib qolishining oldini olish maqsadida burg'ilash eritmalarining suv ajratishini kamaytiradigan ko'p funksiyali kimyoviy reagent mahalliy sanoat chiqindisi asosida ishlab chiqilgan;

geologik asoratlarni oldini olish uchun UMSni o'z ichiga olgan ikkita modifikatsiyadagi burg'ilash eritmalarining yangi tarkiblari ishlab chiqilgan hamda burg'ilash eritmalarining qatlamga yutilishini oldini olish uchun yutilish zonasiga tamponaj qorishmasini etkazib beradigan konteyner ishlab chiqilgan;

skvajina devorlarida korka hosil bo'lishi bilan skvajina devorlarining barqarorligini oshishi va filtratning tog' jinslariga kirib borishini kamaytirish ilmiy asoslangan;

burg'ilash eritmasining tuzilmasiga yuqori issiqlikka bardoshlilik aniqlangan;

UMS reagentining moylash xususiyatlari burg'ilash asboblarda salnik hosil bo'lishining oldini olishini ta'minlashi aniqlangan;

Ustyurt neft va gaz mintaqasi maydonlarida skvajinalarni burg'ilashda UMS reagenti qo'llanilgan burg'ilash eritmalarini asosida geologik asoratlarning oldini olish muammolarini hal qilish bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat chiqindilari asosidagi yangi kimyoviy reagentni o'z ichiga olgan burg'ilash eritmalarining samarali tarkiblari ishlab chiqilgan bo'lib, ular bilan to'kilish, o'pirilish, siqilib qolish kabi geologik asoratlarning oldini olingan;

kimyoviy reagent asosida anomal past bosimli mahsuldor qatlamlarni ochish uchun mo'ljallangan yengillashgan burg'ilash eritmasi ishlab chiqilgan;

Ustyurt mintaqasida skvajinani burg'ilab o'tish jarayonida odatiy burg'ilash eritmasining modifikatsiyasi muvaffaqiyatli qo'llanilgan;

skvajinalarni avariyalessiz burg'ilab o'tish maqsadida burg'ilash eritmalarining moylash xususiyati bilan burg'ilash asbobida salnik shakllanishining oldini olish ta'minlangan;

gilli qatlamlarni burg'ilashda UMS qo'llaganda burg'ilash eritmasi suv ajralishining past qiymatlariga erishilgan hamda qatlamlar geologik asoratlarsiz burg'ilab o'tilgan;

burg'ilash eritmalarining yutilishini oldini olish uchun tamponaj qorishmasini yutilish zonasiga etkazib berish uchun konteyner ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi "O'zbekneftgaz" AJ ning muayyan obyektlarida skvajinalardagi geologik asoratlarni oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan ko'p funksiyali xususiyatlarga ega bo'lgan burg'ilash eritmalaridan foydalangan holda taklif etilayotgan texnologiyani joriy etishning amaliy natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati skvajinalarni murakkab tog'-kon sharoitlarida geologik asoratlarsiz burg'ilab o'tishni ta'minlaydigan ko'p funksiyali yangi kimyoviy reagentni qo'llanganda burg'ilash eritmasining texnologik xususiyatlarini baholash, shuningdek, moylash xususiyati yordamida burg'ilash asboblarida salnik hosil bo'lishi oldini olish hamda konteyner bilan burg'ilash eritmalarining yutilishini bartaraf etish texnologiyasini yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy sanoat chiqindilaridan olingan ko'p funksiyali kimyoviy reagent asosidagi burg'ilash eritmasini qo'llash skvajina devorlarining to'kilishi, doloto va burg'lash asboblarida salnik hosil bo'lishi kabi geologik asoratlarni oldini olish hamda burg'ilash eritmasining qatlamga yutilishini bartaraf etish va yuqori samaradorlikka erishish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Skvajinalarni burg'ilashda geologik asoratlarni oldini olishni ta'minlaydigan, mahalliy resurslar asosida yaratilgan, yangi kimyoviy reagentni qo'llagan holda burg'ilash eritmasini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

murakkab geologik-qidiruv skvajinalarini burg'ilab o'tish jarayonida geologik asoratlarni oldini olish uchun konteyner ixtirosiga O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi tomonidan patent olingan (IAP 06550, 2021 y.). Natijada burg'ilash eritmasining qatlamga yutilishi to'xtatilgan va material-texnik resurslarni iqtisod qilish imkonini bergan;

UMS kimyoviy reagentini qo'llagan holda ishlab chiqilgan ko'p funksiyali burg'ilash eritmasi Ustyurt neft-gaz mintaqasi Shagirlik konining № 1 hamda Quy Sharqiy Berdax konining № 2-skvajinalarini burg'ilab o'tish jarayonida amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekneftgaz" AJ ning 28-dekabr 2024-yildagi 05-24-803-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu texnologiyani joriy etish bilan geologik asoratlar, doloto va burg'ilash asboblarida salnik hosil bo'lishi oldi olinib, moylovchi qo'shimchalardan foydalanishni 10% gacha tejash, shuningdek, bir skvajina uchun 45 million so'm iqtisodiy samaraga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta patent, 6 ta maqola ilmiy jurnallarda, 10 ta tezis dokladlar konferensiya materiallarida chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi doirasida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan,

predmeti va usullari bayon qilingan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari burg'ilashda burg'ilash eritmasining xususiyatlarini boshqarish orqali geologik asoratlarning oldini olish uchun sanoat-sinovi sharoitida joriy etilganligi keltirilgan. Nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Neft va gaz skvajinalarini burg'ilashda yuzaga keladigan asoratlarning dolzarb masalalari”** nomli birinchi bobida kon- geologik sharoitlar bilan bog'liq asoratlari, burg'ilash asboblarining siqilib qolish muammolari, burg'ilash eritmalarining qatlamga yutilishi, burg'ilash eritmalarini qatlamlarni ochishda tog' jinslari bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida skvajina devorining beqarorligi sabablari tadqiq qilingan. Turli geologik asoratlarning oldini olish uchun mahalliy xomashyo asosida oddiy va yengillashgan burg'ilash eritmalarini ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari, shuningdek, burg'ilash eritmalaridan foydalanganda turli xil moylovchi qo'shimchalarning ta'siri asoslangan.

O'pirilishga sabab bo'ladigan omillardan biri gidrodinamik bosimning o'zgarishi bo'lib, bu burg'ilash eritmasi zichligining yuqori qiymatlari bilan ifodalanadi hamda harakatning statik kuchlanishi oshishi bilan bog'liq.

Burg'ilash vaqtida gilli jinslarning o'pirilishi qatlamlar gidravlik yorilishi natijasida hosil bo'ladigan sun'iy darzliklarga burg'ilash eritmalarining kirishi bilan izohlanadi. Skvajina devorlarining barqarorligiga erishish va turli asoratlarga qarshi kurashish usullarini yaratish muammosini faqatgina asoratlarning ko'plab omillarini birgalikda hisobga olingan taqdirdagina hal qilish mumkin.

Shishgan va namlangan gillarda skvajinalarni burg'ilash tog' jinslarining o'pirilishi, burg'ilash asboblarida salnik shakllanishi, shlamning tarqalishi, burg'ilash eritmasining tarkibiy va reologik xususiyatlarining o'sishi va moylash xususiyatlarining yomonlashishi, texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi va boshqa omillar bilan birga sodir bo'ladi. Bularning barchasi burg'ilash jarayonini murakkablashtiradi va kechikishlar, qo'shimcha ishlov berishlar, qoplamalar, nasoslardagi bosimning oshishi, burg'ilash eritmasi aylanish tizimining qisman yoki to'liq yo'qolishi, siqilib qolishlar va boshqalarga olib keladi.


Mahsuldor qatlamlarga burg'ilash eritmasining yutilishi bosim ostida sodir bo'ladi. Yangi izlov skvajinalarida burg'ilash eritmasining yutilishi qatlam bosimining taxminiy ko'rsatkichlari sababli sodir bo'ladi. Qatlam bosimini past baholash turli xil asoratlarga olib keladi. Ko'pgina hollarda skvajina konstruksiyasi va burg'ilash eritmasining zichligini to'g'ri tanlanganda ham burg'ilash eritmasini qatlamga jadal yutilishi sodir bo'ladi. Bu burg'ilash kolonnasining tushish tezligining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, skvajinadagi gidrodinamik bosim qatlamni gidravlik yorilishiga olib kelishi mumkin. Burg'ilash eritmasining jadal yutilishi, gaz namoyon bo'lmasdan skvajinani suv bosganda, eritmani yutilish joyiga kabel yordamida skvajinaga tushirilgan tamponaj qorishmali konteyner yordamida sementli ko'prik o'rnatish ijobiy natijalar berdi.

Skvajinani burg'ilash jarayonida mahsuldor qatlamlarning tabiiy kollektorlik xususiyatlarini saqlab qolish uchun tarkibi qovushqoqlik va filtrlash ko'rsatkichini

boshqarish uchun parchalanadigan, eriydigan yoki inert reagentlar asosida, ayniqsa, skvajina devorlarida yupqa qobiq hosil qiluvchi korkalar orqali filtrlashni cheklaydigan va o‘pirilishlarni oldini oladigan burg‘ilash eritmalarini ishlab chiqish kerak.

Qatlama burg‘ilash eritmasi yutilmasdan, asoratlarsiz, xavfsiz burg‘ilash ishlarini olib borish uchun qatlam bosimini aniqlash, burg‘ilash ishlarining mavjud qoidalariga muvofiq, qatlam bosimiga ko‘ra, burg‘ilash eritmasining zichligini to‘g‘ri tanlash, ko‘tarib-tushirish jarayonlari davomida yuzaga keladigan gidrodinamik bosimni inobatga olish imkonini beruvchi skvajina konstruksiyasi va burg‘ilash kolonnasining pastki qismini, shuningdek yuvish vaqtida gidrodinamik bosimni pasaytirish uchun burg‘ilash eritmalarining ko‘rsatkich (qovushqoqlik, harakatning statik kuchlanishi va h.k.) larini to‘g‘ri tanlash kerak.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekneftgaz” AJ skvajinalarida burg‘ilash jarayonida uchraydigan geologik asoratlar**” deb nomlangan ikkinchi bobida o‘n yil davomida “O‘zbekneftgaz” AJ obyektlarida uchragan asoratlar tahlil qilingan bo‘lib, bunda geologik asoratlarning asosiy qismi skvajina devorining to‘kilishi va o‘pirilishi, natijada burg‘ilash kolonnasining siqilib qolishi, burg‘ilash eritmasining yutilishi va rapa namoyon bo‘lishi ulushlariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi, shuningdek, ekspeditsiyalar bo‘yicha ham asoratlar va ularni bartaraf etishga ketadigan vaqt ham tahlil qilindi. Bu ma’lumotlar muammo o‘z yechimini topmaganligini ko‘rsatdi (1-, 2-rasmlar).



1-rasm. O‘n yil davomida tashkilotlar tomonidan asoratlar va avariylarni bartaraf etish uchun sarflangan vaqt tahlillari

Hozirgi vaqtda skvajinalarni qurish texnologiyasi innovatsion yechimlar bilan birgalikda takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda. Amalda qo‘llaniladigan an’anaviy usul va texnologiyalarga qaramay, burg‘ilash jarayonidagi skvajinadagi asoratlar ijrochilarning aybi, loyihaning, burg‘ilash qoidalarining, texnologik rejimning buzilishi sababli emas, balki skvajinadagi geologik va texnik sharoitlarning nomutanosibligi sababli sodir bo‘ladi.

Skvajinalarni burg‘ilashda uchraydigan og‘ir asoratlardan biri skvajina devorlarining to‘kilishi, o‘pirilishi va burg‘ilash asboblarning siqilib qolishi hisoblanadi, bu holatlarning sababidan skvajinada burg‘ilash kolonnasi harakatchanligini yo‘qotadi. Ko‘pgina hollarda, siqilib qolgan burg‘ilash kolonnasini skvajina ustiga ko‘tarishning iloji bo‘lmaydi va burg‘ilash ishlari yonlama stvol orqali davom ettiriladi. Skvajina devorlari barqarorligini yo‘qotishi, asosan, gil jinsli qatlamlarning yotish oralig‘iga bog‘liq bo‘lib, odatda buzilish yoki ularning plastik oqimiga bog‘liq holda yuzaga keladi.



2-rasm. O‘n yil davomida “O‘zbekneftgaz” AJ obyektlarida asoratlarning o‘zgarish grafigi

Gillarning o‘zgarishi ko‘plab o‘zaro ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liq. Bu omillarni geologik va fizik-kimyoviy omillarga bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining barcha neft va gazli hududlarida siqilib qolish qiyin kon-geologik sharoitlar, skvajinalarning katta chuqurliklari va ularni qurish jarayonida uchraydigan turli xil asoratlarni bartaraf etish zarurati, shuningdek, yuqori qatlam bosimining pasayishi, skvajinani yuvish rejimining buzilishi natijasida torayib qolgan stvolda quvurlarning tiqilib qolishi natijasida yuzaga keladi.

Murakkab avariya, asosan, Buxoro-Xiva, Ustyurt va Surxondaryo neft-gaz mintaqalarida skvajina devorining o‘pirilishi tufayli ro‘y beradi.

Skvajina qurilishi qiyin geologik sharoitlarda amalga oshiriladi, bunday sharoitlarda loyihaga asosan burg‘ilash eritmasi ko‘rsatkichlari va burg‘ilash texnologiyasi rejimini doimiy nazorat qilinishiga qaramay, tog‘ jinslarining

to'kilishi, o'pirilishlar, burg'ilash kolonnasining siqilib qolishi qayta-qayta sodir bo'lgan va ularni bartaraf etishga vaqt va moliyaviy chiqimlar sarflanadi.


Stratigrafik kesimlarning amaliy holatlari tahlil qilinib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan geologik asoratlarni oldini olish uchun qo'llaniladigan burg'ilash eritmalarining kerakli qiymatlarini tanlashimiz mumkin.

Skvajinalarni burg'ilash jarayonida asosiy e'tibor burg'ilash eritmasining texnologik xususiyatlarini kuzatishga qaratiladi: zichlik, suv ajratishi, shartli qovushqoqlik, qo'zg'alishning statik kuchlanishi, filtratsiya korkasining qalinligi, pH qiymati, qum va moylash xususiyati, shuningdek, skvajina stvolini yuvish rejimining ko'rsatkichlari. Bunday nazoratni amalga oshirilgandagina turli xil asoratlarning oldini olish mumkin, deb taxmin qilishga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Skvajinalarni burg'ilash jarayonida geologik asoratlarni oldini olishni ta'minlaydigan samarali texnologiyani ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy chiqindilar, ishlab chiqilgan kimyoviy reagent va UMS kimyoviy reagenti asosida burg'ilash eritmalarining tuzilishi va tarkibiy qismlarining xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan. Hozirgi kunda bu chiqindilar xomashyo yoki turli aralashmalar uchun qo'shimchalar sifatida to'g'ridan-to'g'ri ishlatishga yaroqsiz. Shu sabab, ushbu chiqindilar asosida burg'ilash eritmalari uchun kimyoviy reagent ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar uchun tanlandi.

Biz chiqindining rentgen-strukturali tahlili taqqoslanganda uning kristall tuzilmasi, ya'ni simmetriyasi aniqlandi.


Kristalli birikmaning strukturasi tahlil qilish natijalari ularning shakllanish shartlarini baholashga imkon berdi, chunki birikmaning bir xil kimyoviy tarkibi uchun bir nechta polimorf modifikatsiyalar ma'lum bo'lishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. SEM asbobi (a) +raqamli mikrofotografiyada (b) chiqindi namunalari tarkibining miqdoriy element tahlili


Olingan rentgen-strukturali tahlil ma'lumotlari faollashtirilgan ko'mir tuzilishi bilan taqqoslanganda ular o'xshash piktogrammalarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi (4-rasm).

Tadqiqotlar davomida IK-spektrometriya usulida tadqiqotlar uchun olingan chiqindi o'rganildi. IK-spektroskopiya ma'lumotlari u sp^2 va sp^3 uglerod atomlarining alkanlar – C-H valent tebranishlari guruhidan iboratligini ko'rsatdi.



4-rasm. Mahalliy chiqindining (1) elementar tarkibini rentgenostrukturali tahlil qilish va uni faol ko‘mirning (2) tuzilishi bilan taqqoslash

C-H sp^3 tebranishlari 3000 cm^{-1} qiymatning o‘ng tomonida, C-H sp^2 tebranishlari 3000 cm^{-1} qiymatning chap tomonida joylashgan, ya’ni bu chiqindining ushbu ikkita birikmaga ega ekanligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, olingan piklarni tahlil qilish orqali $2000 - 1600\text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida C=C valentlik tebranishlar aniqlandi, bu yuqori ehtimollik bilan strukturada aromatik halqa mavjudligini ko‘rsatdi (odatda past intensivlik) (5-rasm).




5-rasm. Shartli ravishda nomlangan mahalliy sanoat chiqindisining IK-spektrini (content) o‘xshash piklar bilan taqqoslash

IK-spektrlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar bazaviy ma’lumotlar bilan solishtirilganda ishlab chiqilgan sanoat chiqindisi asosidagi reagent ma’lumotlari dimetil naftalin va 2-etilennaftalin izomerlari bilan taxminan 50% va polisteren

propilen oksidi bilan taxminan 40% ga to'g'ri kelishini ko'satdi. Bu $C_{12}H_{12}$ formulaga ega bo'lgan politsiklik aromatik uglevodoroddir.

Ishlab chiqilgan kimyoviy reagent osongina kukun holatiga keladi va qo'lni bo'yaydi, ammo u suv bilan osongina yuviladi. Bundan tashqari, bu aralashmaning yana bir xususiyati – moylash qobiliyatiga egaligi barmoqlar orasiga surtish orqali aniqlandi va IK ma'lumotlari buni mos piklar bilan tasdiqladi (5-rasm).




6-rasm. SEM + raqamli mikrografiyada kimyoviy reagentning tarkibini miqdoriy element tahlili

Ishlab chiqilgan kimyoviy reagent SEMda tadqiq qilindi va bu reagentning miqdoriy element tarkibini aniqlash imkonini berdi (6-rasm).

Ishlab chiqilgan kimyoviy reagentning funksional guruhlarini aniqlash uchun IK-spektr tahlilidan o'tkazildi.

IK-spektr noorganik uglerodlar, alifatik karboksilik kislotalar va alifatik uglevodorodlarni, ya'ni uglerod atomlari zanjirini aniq aks ettirdi. 7-rasmda spektral tahlil tanlangan chiqindi tuzilmasida kimyoviy o'zgarishlarga uchraganligini ko'rsatdi.

Kimyoviy reagentning IK-spektri moylash qobiliyatiga ega parafin 1,2,3-trixlor-5-nitrobenzolning piklariga o'xshash piklarga (50% dan ortiq) egaligi ko'rsatilgan (7-rasm).



7-rasm. Kimyoviy reagent IK-spektr (content)ini o'xshash piklar bilan taqqoslash

1-jadval

Marmar kukuni qo'shilgan UMS reagenti qo'llanilgan burg'ilash eritmasining xususiyatlarini tadqiq qilish

| № | Burg'ilash eritmasining tarkibi | ρ , kg/m ³ | T ₅₀₀ , s | V, sm ³ /30 min | K, mm | pH | SNS | |
|----|---|-------------------------------|-------------------------|-------------------------------|----------|-----|-------|--------|
| | | | | | | | 1 min | 10 min |
| 1 | Bosh.eritma: 1000 ml suv +bentonit +NaOH+Na ₂ CO ₃ +KMS-700 | 1150 | 115 | 6-7 | 2,5 | 8,5 | 35 | 57 |
| 2 | Bosh.eritma №1: +0,25 % UMS | 1130 | 103 | 6-6,5 | 2,5 | 9 | 29 | 47 |
| 3 | Bosh.eritma №1: +0,5 % UMS | 1120 | 99 | 5,0-5,2 | 2,0 | 9,5 | 21 | 33 |
| 4 | Bosh.eritma №1: +0,75 % UMS | 1110 | 94 | 4,9 -5,0 | 2,0 | 9,5 | 11 | 25 |
| 5 | Bosh.eritma №1: +1,0 % UMS | 1100 | 88 | 4,5-4,8 | 1,5 | 9,5 | 8 | 21 |
| 6 | Bosh.eritma №1: +1,25 % UMS | 1190 | 82 | 4,0-4,2 | 1,5 | 9,5 | 7 | 19 |
| 7 | Bosh.eritma №1: +1,5 % UMS | 1180 | 77 | 3,5-3,7 | 1,5 | 9,5 | 5 | 17 |
| 8 | Bosh.eritma №1: +1,75 % UMS | 1170 | 71 | 3,0-3,3 | 1,0 | 9,5 | 3 | 11 |
| 9 | Bosh.eritma №1: +2,25 % UMS | 1160 | 66 | 2,5-2,9 | 1,0 | 9,5 | 1,5 | 7 |
| 10 | Bosh.eritma №1: +2,5 % UMS | 950 | 61 | 2,0-2,3 | 0,5 | 9,5 | 1 | 5 |
| 11 | Bosh.eritma №1: +2,75 % UMS | 900 | 57 | 1,8-2,1 | 0,5 | 9,5 | 0,5 | 3,5 |
| 12 | Bosh.eritma №1: +3,0 % UMS | 850 | 50 | 1,5-1,7 | 0,5 | 9,5 | 0 | 3 |


Laboratoriya tadqiqotlari UMS burg'ilash eritmasining zichligi 850 kg/m³ da suv ajratishini kamaytiradi. 1 – 1,5% miqdorida kimyoviy reagent qo'shilganda,

eritmaning suv ajratuvchanligi 6 – 7 sm³/30min dan 4,5 – 3,5 sm³/30min gacha kamayadi va konsentratsiyani 2,5% ga oshirilganda uning korka hosil qilishi 2,5 dan 0,5 mm gacha kamaydi va burg‘ilash eritmasining qovushqoqligi 115 dan 50 soniyagacha kamaydi. Olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra, burg‘ilash eritmasida UMS konsentratsiyasini oshirish uning zichligi va filtrlanishining pasayishiga olib keladi, masalan, UMS konsentratsiyasini 3% ga oshirish orqali suv ajralishi 1,5 – 1,7 sm³/30 min gacha kamaydi (1-jadval). Ushbu reagent yordamida yengil, odatiy va yuqori qovushqoqli gilli burg‘ilash eritmalari olindi va ularning texnologik xususiyatlari o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra zichlik, qovushqoqlik, suv ajratishi va qobiq hosil bo‘lishining qiyosiy xususiyatlari tahlil qilindi (2-jadval, 8-rasm).

2-jadval

UMS reagenti bilan qayta ishlangan burg‘ilash eritmasining texnologik ko‘rsatkichlari ma‘lumotlarini qiyosiy tahlili


| Reagent miqdori | | Marmar kukuni bilan | | | Shorsuy gili bilan | | | Barit konsentrat bilan | | |
|-----------------|--------|----------------------------|----------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------|----------------------------|
| No | UMS, % | ρ , kg/m ³ | T ₅₀₀ , s | V, sm ³ /30 min | ρ , kg/m ³ | T ₅₀₀ , s | V, sm ³ /30 min | ρ , kg/m ³ | T ₅₀₀ , s | V, sm ³ /30 min |
| 1 | 0,25 | 1150 | 115 | 7 | 1150 | 115 | 9 | 1450 | 88 | 28 |
| 2 | 0,5 | 1130 | 103 | 6,5 | 1130 | 110 | 7,5 | 1430 | 83 | 23 |
| 3 | 0,75 | 1120 | 99 | 5,2 | 1120 | 105 | 6,5 | 1420 | 78 | 18 |
| 4 | 1 | 1110 | 94 | 5 | 1120 | 100 | 6,5 | 1410 | 73 | 14 |
| 5 | 1,25 | 1100 | 88 | 4,8 | 1110 | 95 | 6 | 1400 | 68 | 8,5 |
| 6 | 1,5 | 1190 | 82 | 4,2 | 1110 | 90 | 5,5 | 1390 | 62 | 7 |
| 7 | 1,75 | 1180 | 77 | 3,7 | 1110 | 85 | 5 | 1380 | 57 | 5 |
| 8 | 2 | 1170 | 71 | 3,3 | 1100 | 80 | 4,5 | 1370 | 51 | 4 |
| 9 | 2,25 | 1160 | 66 | 2,9 | 1100 | 75 | 4 | 1360 | 45 | 4 |
| 10 | 2,5 | 950 | 61 | 2,3 | 1100 | 70 | 3,5 | 1350 | 38 | 4 |
| 11 | 2,75 | 900 | 57 | 2,1 | 1070 | 65 | 3 | 1300 | 32 | 3 |
| 12 | 3 | 850 | 50 | 1,7 | 1070 | 60 | 3 | 1250 | 23 | 3 |



8-rasm. Turli qo‘shimchalar asosida UMS reagenti bilan burg‘ilash eritmasining zichliklari orasidagi bog‘liqligi:

1- marmar kukuni bilan; 2-shorsuy gili bilan; 3-barit konsentrat bilan

2-jadval va 8-rasmda filtratsiyaning boshlang'ich tezligi ishlov berilmagan reagent eritmasining qiymati kimyoviy reagent bilan ishlov berilganga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Burg'ilash eritmasiga 0,5 va 1,0% reagent qo'shilganda, suvning dastlabki ajratilishi mos ravishda 5 – 5,2 dan 4,5 – 4,8 sm³/30 minutgacha kamaygan. UMS konsentratsiya oshirilgani sari zichlik pasayib bordi. Bu filtrlash korkasidagi teshik kanallari moylash qo'shimchasining dispers zarralari bilan berkilishi, shuningdek, sirtida moylash plyonkasi hosil bo'lishi bilan bog'liq.




9-rasm. Sanoat chiqindisi, ishlab chiqilgan kimyoviy reagent va kimyoviy reagent qo'llanilgan burg'ilash eritmasining IK-spektr tahlillari:

— - sanoat chiqindisi; — - kimyoviy reagent; — - to'liq quritilmagan burg'ilash eritmasi; — - to'liq quritilgan burg'ilash eritmasi.

Yuqoridagi rasmda sanoat chiqindisining, chiqindi asosida ishlab chiqilgan kimyoviy reagentning, oxirigacha quritilmagan va oxirigacha quritilgan burg'ilash eritmalarining IK-spektrlari qiyosiy tahlillari keltirilgan bo'lib, unda tarkib va funksional guruhlarining o'zgarishi aniq ifodalangan (9-rasm).

Yopishqoqlik takomillashtirilgan usul bilan quyidagicha aniqlandi (10-rasm). Gilli korka 4 stol ustiga qo'yildi. Korka 4 ustiga kvadrat tomoni 10 mm ga teng bo'lgan po'lat brusok 3 joylashtirildi hamda anannaviy usulda sterjendagi massaning ortishi orqali brusok qo'zg'alishi bilan aniqlandi (3-jadval).



10-rasm. Takomillashtirilgan usul bo'yicha yopishqoqlikni aniqlash usuli:

1-stolni to'g'rilash uchun vint; 2-stol; 3-metall brusok; 4-burg'ilash eritmasi yoki korka; 5-ipni to'g'ri holatda ushlab uchun sharnir; 6-massa


UMS moylovchi qo‘shimcha qo‘llangan burg‘ilash eritmasini turli reagentlar bilan taqqoslash orqali yopishqoqligini tahlil qilish

| Qo‘shimcha turi | Zichlik ρ , g/sm ³ | SNS, Pa | Qobiq qalinligi K, mm | Korkaning yopishqoqligi, 0,1 | Ishqalanish koeffitsienti | Massa, g |
|-----------------|------------------------------------|---------|-----------------------|------------------------------|---------------------------|----------|
| UMS | 1,13 | 0/3 | 0,5 | 9 ⁰ | 0,13 | 5 |
| SD-1 | 1,17 | 9/11 | 0,5 | 10 ⁰ | 0,15 | 6 |
| OP-10 | 1,16 | 9/11 | 0,5 | 16 ⁰ | 0,19 | 8 |
| SMAD | 1,15 | 13/17 | 1,5 | 13 ⁰ | 0,13 | 7 |
| GRAFIT | 1,13 | 11/15 | 1,0 | 15 ⁰ | 0,19 | 7 |

Laboratoriya tadqiqotlari davomida olingan ma’lumotlarni umumlashtirib, moylash ta’siriga ega bo‘lgan UMS reagentini filtratsiyani kamaytiruvchi, mo‘tadillikni saqlovchi, korka hosil qiluvchi yengil va oddiy burg‘ilash eritmalarini tayyorlashda ishlatilishi mumkin, degan xulosa olindi.

Dissertatsiyaning ““O‘zbekneftgaz” AJ konlarida ishlab chiqilgan texnologiyani sinovdan o‘tkazish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida kon-sanoatida ishlab chiqilgan burg‘ilash eritmasini sinovda qo‘llash uchun matematik hisobi, ishlab chiqilgan tarkibni olish texnologiyasi hamda skvajinalarni burg‘ilashda qo‘llash samaradorligi keltirilgan.

Neft va gaz skvajinalarini burg‘ilashda ishlab chiqilgan UMS reagenti asosidagi burg‘ilash eritmasi tajriba sinovlari o‘tkazilgan va ularni bevosita sanoatda qo‘llash burg‘ilash ishlarining samaradorligini hamda havfsizligini oshirgan. Bu o‘z navbatida skvajinalarni geologic asoratlarsiz burg‘ilab o‘tishni ta’minlab bergan (11-rasm). Matematik hisoblarda kon-sharoitida burg‘ilash eritmasini qo‘llash uchun talab qilingan zichliklarni aniqlash to‘liq keltirilgan.



11-rasm. UMS yangi kimyoviy reagentini ishlab chiqarish bilan qadoqlash uchun jihozlar:

1-maydalagich; 2-reaktop; 3-quritgich; 4-tayyor mahsulot

UMS reagentini qo‘llagan holda burg‘ilab o‘tilganda bitta skvajinadan olingan iqtisodiy samaradorlik 45 million so‘mni tashkil etdi.

Xulosa

“Skvajinalarni burg‘ilash jarayonida yuz beradigan geologik asoratlarni oldini olish texnologiyasini ishlab chiqish” dissertatsiya ishi tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. “O‘zbekneftgaz” AJ obyektlarida sodir bo‘lgan geologik asoratlarning asosiy qismi yutilish, rapa namoyon bo‘lishi, to‘kilish va o‘pirilish hamda siqilishlar ulushiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

2. Mahalliy sanoat chiqindilari asosida burg‘ilash eritmalarining suv ajratishini pasaytiradigan yangi UMS kimyoviy reagenti ishlab chiqildi.

3. Geologik asoratlarni oldini olish texnologiyasi uchun past filtratsiya ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan samarali burg‘ilash eritmalari ishlab chiqildi.

4. Burg‘ilash eritmalarining qatlamga yutilishini oldini olish uchun geologik asoratli zonaga tamponaj qorishmasini etkazib beradigan konteyner ishlab chiqildi.

5. UMS reagenti asosida ishlab chiqilgan burg‘ilash eritmasining afzalligi skvajinalarni burg‘ilashning texnologik jarayonida burg‘ilash eritmalarining barqarorligini ta‘minlaydigan tarkib va tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyatlari yotadi. Past filtrlash, moylash xususiyati, korka shakllanishi va strukturaning uzoq vaqt saqlanishi tufayli reagent agressiv muhitga chidamliligini ko‘rsatdi.

6. Spektral tahlil bilan aniqlangan tarkibiy qismlarning ion almashinuvi mexanizmi bilan moylash xususiyatlari funktsional guruhlarning mavjudligi bilan asoslandi.

7. Burg‘ilash eritmasidagi kimyoviy reagent suv ajralishini sezilarli darajada kamaytirishining ta‘sir qilish mexanizmi aniqlandi.

8. Ishlab chiqilgan kimyoviy reagentni o‘z ichiga olgan burg‘ilash eritmasi Shagirluk konining № 1-skvajinasida va Quyi Sharqiy Berdax konining № 2-skvajinasida o‘tkazildi. Olingan natijalarga ko‘ra, salnik hosil bo‘lishi oldi olindi, tog‘ jinslarining barqarorligi ta‘minlandi, siqilib qolishning oldi olingan holda skvajina burg‘ilab o‘tildi. Bir skvajina uchun olingan iqtisodiy samaradorlik 45000000 so‘mni tashkil etdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.23/25.08.2021.Т.136.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АО «O‘ZLITINEFTGAZ»**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

МИРСААТОВА ШАХНОЗА ХИКМАТУЛЛАЕВНА

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ
ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ БУРЕНИЯ СКВАЖИН**

04.00.11 – Технология бурения и освоения скважин

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/T2812.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.liting.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Рахимов Анварходжа Акбарходжиевич,**
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Алиев Баходир Абдуганиевич**
доктор технических наук, профессор

Мамаджанов Элзод Улмасович
кандидат технических наук

Ведущая организация: **ГУ «ИГИРНИГМ»**

Защита диссертации состоится «17» апреля 2024 года в «10-00» часов на заседании разового Научного совета DSc.23/25.08.2021.T.136.01 при АО «O‘ZLITINEFTGAZ» (Адрес: 100029, г.Ташкент, ул. Тараса Шевченко, 2. тел.: (+99871)280-67-00; факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре АО «O‘ZLITINEFTGAZ» (регистрационный № 12). (Адрес: 100029, г. Ташкент, ул. Тарас Шевченко, 2. тел.: (+99871)280-67-00; факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года.
(реестр Протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2024 года).

У.С.Назаров
Председатель разового Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Р.У.Шафиев
Ученый секретарь разового Научного
совета по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук

А.А.Закиров
Председатель разового Научного семинара при
разовом Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одной из приоритетных задач является внедрение инновационных технологий в увеличении добычи нефти и газа за счет бурения нефтяных и газовых скважин без геологических осложнений. Стоимость строительства скважин с устранением геологических осложнений резко возрастает по сравнению с проектной, при этом технико-экономические показатели бурения не дают ожидаемого результата. Исходя из этого, одной из наиболее актуальных задач является бурение скважин на нефть и газ с применением высокоэффективных новых технологий с доведением их до проектных глубин без аварий и осложнений. В связи с этим важное теоретическое и практическое значение в предупреждении геологических осложнений имеет разработка многофункциональных химических реагентов на основе местных побочных продуктов взамен импортных дорогостоящих реагентов, а также внедрение инновационных технологий доставки тампонажной смеси со специальным контейнером в зоны поглощения буровых растворов.

В настоящее время в мире ведущими компаниями нефтегазодобычи и создателями технологий проводятся научные исследования по предупреждению и предотвращению геологических осложнений, возникающих при бурении нефтяных и газовых скважин. Для обеспечения успешной, качественной и безаварийной проводки скважины исследователи особое внимание уделяют разработке различных химических реагентов с регулированием технологических свойств бурового раствора, которые обеспечивают предупреждение геологических осложнений и способствуют повышению эффективности буровых работ.

В республике в условиях роста потребности в нефти и газа из года в год требует поиска новых площадей, открытия новых месторождений и бурения новых скважин для увеличения добычи углеводородного сырья. Для этого необходимо уделять большое внимание развитию и внедрению передовых современных технологий и программных комплексов по предупреждению геологических осложнений и безаварийной проводке скважины. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи по «сокращению энергоёмкости и ресурсоёмкости экономики, широкому внедрению в производство энергосберегающих технологий, повышению производительности труда в отраслях экономики»¹. Исходя из этого, разработка буровых растворов с многофункциональными свойствами, а также создание новых технологий с целью предупреждения геологических осложнений в горно-геологических условиях имеет большое научное и практическое значение при строительстве скважин.

Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-6319 от 6 октября 2021 г. «О мерах по дальнейшему стимулированию

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 г. № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

геологоразведочных работ», № УП-116 от 27 июля 2023 г. «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере горнодобывающей промышленности и геологии в рамках административных реформ», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4388 от 9 июля 2019 г. «О мерах по совершенствованию системы организации и проведения геологоразведочных работ на нефть и газ», №ПП-4401 от 23 июля 2019 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию геологического изучения недр и реализации государственной программы развития и воспроизводства минерально-сырьевой базы на 2020 – 2021 годы», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в этой сфере.

